

**ABDULLA QAHHORNING ASARLARIDAGI IJTIMOIIY
MAVZULARNING TAHLILI VA BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI**

Tashpulatov Shukurullo

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,

tarix fanlari doktori (DSc) Oybek Rashidov

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abdulla Qahhor asarlarida yoritilgan ijtimoiy mavzular va ularning bugungi kundagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Adibning “O‘g‘ri”, “Ayb kimda”, “San’atkor”, “Adabiyot muallimi”, “O‘jar” hamda “Dahshat” kabi asarlarida korrupsiya, loqaydlik, tarbiya masalasi, savodsizlik, manmanlik, ayollar taqdiri va zo‘ravonlik singari muammolar badiiy mahorat bilan tasvirlanganligi ochib beriladi. Shuningdek, ushbu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar hozirgi jamiyat hayoti bilan qiyoslanib, yozuvchi ijodining tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyati yoritiladi. Maqolada Abdulla Qahhor ijodining haqiqatparvarlik va tanqidiy ruh orqali jamiyatni fikrlashga undovchi jihatlari ko‘rib chiqiladi.

KIRISH

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Qahhor ijodi alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchi o‘zining qisqa va lo‘nda, ammo chuqur ma’noga ega asarlari orqali xalq hayotidagi turli ijtimoiy muammolarni haqqoniy tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. Uning asarlarida inson ruhiyati, jamiyatdagi illatlar, ma’naviy tanazzul va tarbiya masalalari tanqidiy ruhda ochib beriladi. Ayniqsa, adibning hajviy va satirik uslubi o‘quvchini nafaqat kuldiradi, balki chuqur mushohada yuritishga ham undaydi.

Abdulla Qahhor yashagan davr murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan kechgan bo‘lsa-da, yozuvchi o‘z asarlarida oddiy xalqning dardi, jamiyatdagi adolatsizlik va insoniy qadriyatlarning yemirilishi kabi masalalarni yoritishga intilgan. Shu jihatdan uning asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zero, korrupsiya, loqaydlik, oilaviy tarbiya, ma’naviy savodsizlik va ayollar masalasi kabi muammolar hozirgi jamiyatda ham uchrab turibdi. Shuning uchun ham adib ijodini o‘rganish va undagi ijtimoiy g‘oyalarni tahlil qilish muhim ilmiy hamda ma’naviy ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Yozuvchi o'z asarlarini ayniqsa tanqidiy ruhda yoritishga uringan. Masalan, uning "O'g'ri" hikoyasidan olam-olam ma'no olish mumkin. Ushbu asarda adib o'zi yashab o'tgan qahatchilik davrini, oddiy xalqning kambag'al va achinarli holatini qalamga oladi. Ayniqsa, bunday moliyaviy qiyinchilik davrida insof, odamgarchilikdan kechib,

qiyin ahvoldagi xalqqa yordam berishdan ko'ra o'z manfaatini o'ylaydigan va ularni terisini battar shilishga urinadigan yuqoridagi ba'zi bir "mutassaddilar" qoralanadi. Shuningdek, butun dunyoda rivojlanish yuksalishga bolta urayotgan korrupsiya balosi asarda yaqqol tasvirlangan. Shu qatordan molparastlik, xalqning hayotiga befarqlik, bir masalani hal qilishda odamlarni ortiqcha sarsongarchilikka qo'yish ham joy olgan. Sir emaski bugungi kunda bunday holatlar haligacha uchraydi. Bu hikoyasi bilan Abdulla Qahhor poraxo'r, o'ziga bino qo'ygan, egoist mansab egalariga ko'zgu tutadi. Haqiqatan, nochorlarga ko'maklashish, zarur sharoitlarni yaratib berish ko'pchilik kursi egalarini hayoliga ham kelayotgani yo'q. Agar shunday bo'lganida, biz har zamon zangori ekranlarda hali u mahalla, hali bu hududning yashashi, ishlashi, o'qishi uchun kerakli sharoitlar taqchil ekanligidan shikoyat bilan murojaat qilayotganini ko'rmagan bo'lardik.

Jamiyatimizda uchrayotgan yana bir muhim masalalardan biri bu bola tarbiyasidir. Guvoh bo'layapmizki, ko'pchilik ota-onalar bugungi kunda o'zlarining ishlari, ko'ngilxushliklari va shu kabi kundalik muammolarini deb o'z farzandlariga kam yoki umuman vaqt ajratishmayapti ham. Oqibatda esa yoshlarning kelajagi buzilib, tarbiyasiz, beparvo yosh avlod yetishib chiqmoqda. Mazkur muammoning yorqin tasvirini biz Abdulla Qahhorning "Ayb kimda" nomli asarida ko'rishimiz mumkin. Hikoyada ota-ona o'z farzandi tarbiyasini maktabga, o'qituvchiga yuklab, o'z ma'suliyatidan bo'yin tovlashga urinadi. Vaholanki, tarbiyani ota-ona, bilimni o'qituvchi beradi. Ayni damda, aksariyat ota-onalar aybni o'qituvchiga yuklab qo'yib o'z majburiyatlaridan shunchaki voz kechib qo'yib, arzni o'qituvchiga maktabga yuklamoqdalar. Qush uyida ko'rganini qiladi deganlaridek kun kelib, ularning farzandi shunday o'ziga o'xshash beparvo bo'lib yetishib chiqishi turgan gap. Bir oiladagi bunday qaltis vaziyat ertaga butun millatni zaharlamasdan qo'ymaydi. Mana shuning uchun ham farzandning shaxs sifatida shakllanishida ota-onaning o'rni katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga farzand tarbiyasiga e'tibor borasida bekorga muhim majlislar tashkil etilib, gazeta va jurnallarda qayta-qayta bong urilayotgani yo'q. Ziyoli ota-onadan hech qachon yomon farzand chiqmaydi. Qalami o'tkir yozuvchi, aynan shu muammoni tanqid niqobi ostiga olib, ota-onaning farzandga e'tiborini kuchaytirish naqadar muhimligini ilgari surgan.

Abdulla Qahhorning yana qator e'tiborga molik "San'atkor", "Adabiyot muallimi", "O'jar" asarlari ham jamiyatni qiynab kelayotgan davr muammolaridan biri bilimsizlik hajv pardasiga mohirlik bilan o'ralgan. Bu asardagi qahramonlar manmanlik, maqtanchoqlik, oliftagarchilik bilan o'zlarini saviyali, bilimdon qilib ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Aslida esa, ular bekorchi gapdan nariga o'tmay, o'z savodsizliklarini, ma'rifatsizliklarini xudbinlik pardasiga olishmoqchi bo'lishadi. Ammo, axiri baribir ularning soxta qiyofalari fosh bo'ladi. Bu turdagi insonlar hozirgi kunda ham jamiyatimizda uchraydi. Ular shunday manmanlik, takabburlik ila g'iybat,

quruq gap-so'zdan boshqasini eplolmay, hatto atrofdagilarga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Va sezishimiz mumkinki, loqaydlik, g'iybat, safsatabozlik, xo'ja ko'rsinga o'zini baland tutishlik va bekorchilik kabi insonni qoloqlikka eltuvchi xususiyatlar aynan bilimsizlik, savodsizlik bois kelib chiqadi. Saviyali inson hech qachon vaqtini bekorchi gap-so'z-u, nifoq sochishga, bilib-bilmay behuda so'zlashga sarflamaydi. Bilim insonni yetuklikka yetaklaydi, natijada jamiyat bu kabi qusurlardan holi bo'lib, rivojlanishiga, yuksalishiga yo'l ochiladi. Abdulla Qahhorning ushbu asarlaridagi og'riqli nuqtalar ham ana shu masalalarda.

Adibning yana bir muhim ahamiyatga ega bo'lgan asari "Dahshat" asaridir. Ushbu asarda sho'ro davridagi ayollarning ko'rgan qiyinchiliklari va qora kunlarini tasvirlaydi. Ayniqsa, ayollarga bo'lgan zo'ravonlik ta'sirli darajada tasvirlangan. Bu davrdagi shafqatsizlik, bemehrlik, johillik, zolimlik shunday yorqin ochib berilganki, asarni o'qish orqali yosh avlodning ko'pchiligi hozirgi kuniga shukr qiladi. Ammo, shunga qaramay, bu zo'ravonliklar ayni damda yo'q deb aytib bo'lmaydi. Ravshanki, bundan ham og'irroq jinoyatlar kundan kunga ortib bormoqda. Pedofiliya, ruhiy va jismoniy qiynoqqa solish, kamsitish shular sirasidan. Shu sababdan ham yurtimizda shu mavzuga alohida e'tibor qaratilib, muhim chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Ayollar huquqini himoya qilish, ularga keng shart-sharoitlar va imkoniyatlarni keng miqyosda yaratib berishda ko'plab sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Zero, ayollar kelajak avlodning yuksalishida katta hissaga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ota-ona bilimli bo'lsa undan aqlli farzand yetishib chiqadi. Mazkur asarga boshqa tarafdin izoh beradigan bo'lsak, asar bosh qahramoni Unisn uchun "dahshat" aslida qabriston emas balki u yashab turgan muhit edi. U yashayotgan muhit shunchalar ayovsiz ediki, bu muhit oldida qabriston hech gap emasdi. Bu yerdan ko'rinib turibdiki, zotan, bizga ko'rinib turadigan qo'rquvlar, yovuzliklarga nisbatan insonlar ichidagi razillik, bag'ritoshlik va shu asnodan ular yaratadigan ijtimoiy muhit har qanday ko'rinarli vahimadan ham xavotirliroqdir. Negaki, tashqaridagi xatarli voqeliklarni ko'rish va xulosa qilish, ulardan qochish oson. Ammo, insonlarning ichki dunyosini, ularning asl maqsadi va niyatini bilish, bunday qalbi qora insonlardan himoyalani sh qiyin. Bu nuqtai nazardan Abdulla Qahhor xalq va millat ma'naviyati shunchalar nozik masala ekanini ham mahorat bilan bildirib ketgan. Shu jihatdan, yozuvchi bu asarida ham chuqur masalalarni falsafiy ohangda, ijtimoiy muammolar ortida serqirra ma'nolarni yashirgan holda millat ko'zini ochishga uringan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Qahhor o'z haqiqatparvar tabiatiga monand asarlarida ham achchiq haqiqatlarni namoyon qilgan. Shunchaki emas, balki tanqidiy va satirik ruhda u o'quvchini kuldirishga intilgan. Har bir inson uning asarlarini mutolaa qilar ekan, shaxs sifatida ham, o'z kasb-kori jihatidan ham dunyoqarashi oshib boradi. Chunki, Abdulla Qahhor asarlaridagi ko'tarilgan masalalar

ma'lum sohani emas, balki butun boshli tizimga qaytadan nazar solishga, fikr qilishga undaydi. Aytish joizki, bejizga uning asarlari bir qancha tillarga tarjima qilinmagan. Bu bilan har bir inson vaziyatga chuqurroq yondashishga, e'tiborli va ogoh bo'lishga, atrofida ro'y berayotgan ko'ngilsizliklarga loqayd bo'lmaslikka o'rganadi.

Umuman olganda, yozuvchi asarlari ma'naviy yetuklikka va komil inson bo'lishni ilgari suradi, o'quvchini haqiqat uchun kurashishga, qat'iyatga, tarbiyaga chaqiradi. Sir emaski, uning ko'plab asarlari shu kungacha bebaho ma'naviy meros sifatida tan olib kelinmoqdaki, asarlaridagi mavzular hali hamon jiddiy diqqat qilishga tortadi. Abdulla Qahhor mana shunday nodir asarlari bilan o'zbek adabiyoti va ma'naviyati shakllanishiga hissa qo'shgan, alohida o'ringa ega, tengsiz ijodkordir.

FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR

1. A. Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: “G’afur G’ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. 76, 81, 176, 178 -betlar.
2. A. Qahhor. Ayb kimda. Hikoyalar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 160 b.
3. Umarali Normatov. Abdulla Qahhor haqida & Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida | Xurshid Davron kutubxonasi
4. Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati & Abdulla Qahhor xazinasidan | Xurshid Davron kutubxonasi